IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

“ EKINCHI” GAZETASINING JADID ADABIYOTI TARAQQIYOTIDAGI O’RNI

Shirinova Muborak Maxmudovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada jadid adabiyoti vakillari tomonidan yaratilgan qimmatli ma’lumotlar o’rin olgan.

Kalit so’zlar: Hasanbey Zardobiy, “Ekinchi” gazetasi, “Turkiston viloyati gazeti”, jadid adabiyoti.

Abstract: This article contains valuable information created by representatives of Jadid literature.

Keywords: Hasan bey Zardabi, “Ekinchi” newspaper, Turkiston Viloyati Gazeti, Jadid literature.

Аннотация: В данной статье содержится ценная информация, созданная представителями джадидской литературы.

Ключевые слова: Хасанбей Зардаби, газета “Экинчи”, газета “Газета Туркестанского вилоята”, джадидская литература

Turkiston jadidlari uchun tashqi ta’sirlar orasida Kavkazdagi islohotchilik harakati va uning matbuoti alohida o‘rin tutadi. Agar Ismoil Gasprinskiyning “Tarjumon”i butun turkiy dunyo uchun mafkuraviy markaz bo‘lgan bo‘lsa, undan salkam o‘n yil avval, 1875-yilda Bokuda Hasanbey Zardobiy tomonidan asos solingan “Ekinchi” gazetasi Chor Rossiyasidagi butun turkiy matbuotning “tamal toshini qo‘ygan” ilk jur’atli qadam edi. Turkiston jadidlari uchun “Ekinchi”ning tajribasi muhim amaliy andoza vazifasini o‘tadi.

Ozarbayjon milliy adabiyot va matbuotining tamal toshini qo‘ygan “Əkinçi” gazetasi ozar xalqi ma’naviyati tarixida yangi bir sharafli sahifani ochdi. XIX asr ozarbayjon, mohiyatan butun turkiyzabon xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotining ko‘zgusi bo‘lgan bu gazetaning jami 56 soni nashr qilingan. Davriy matbuot Yevropada XVI asrda, Rossiyada XVIII dastlabki yillarida dunyoga kelgan bo‘lsa, Ozarbayjon bunga 1875-yilda “Əkinçi” dunyo yuzini ko‘rishi bilan erishdi. Gazeta asoschisi va muharriri Mirza Fatali Oxundovning munosib izdoshlaridan biri Hasanbey Malikov (Malikzoda) Zardobiy (1842 – 1907) edi. Ikki haftada bir marta nashr qilinuvchi ushbu gazeta o‘z nomi bilan zohiran qishloq xo‘jalik masalalariga e’tibor qaratadigan, agrar soha vakillari uchun mo‘ljallanganday ko‘rinsa ham, uning botiniy maqsadlarini bir oz bo‘lsa ham ko‘zdan yiroqqa olib turuvchi “Ekin va ziroat xabarlari”dan keyin, “Doxiliyya xabarlar”, “Yangi xabarlar” kabi ruknlarda juda muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy mavzularda xabarlar berilib boradi. 1875 – 1977-yillarda faoliyat olib borgan ushbu gazetaning barcha sonlari asl matnlari Ozarbayjon olimlari tomonidan ikki marta (1977-2005-yillarda) nashr qilingani tahsinga sazovor.

“Bokuda Hasanbek Malikov vafot etdi. Ko‘kragi nishonlar va ordenlar ila to‘lmadig‘i holda buning vafoti sababindan butun Qafqaz qozon o‘rninda qaynadi. Kim tarjimai hol yozar, kimi ta’xiya aylar, kimi va hokazo. Mullolar, savdogarlar, jamiyatlar, shogirdlar va avomillara qadar buni sog‘inurlar, ehtirom aylar... Alloh taolo mazhari avf aylasun!”

Gazeta sahifalarini varaqlab, uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidan muttasil ravishda xabar berib borgani, qardosh xalq taqdiriga befarq emasligini ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri, o‘z davridagi syenzura talablari bilan gazeta sahifalarida Chor Rossiyasi siyosatiga qarshi keskin chiqishlar kam ko‘rinsa ham, ayrim ilg‘or ziyolilarga xos teranlik bilan ifoda etilgan siyosiy kayfiyatni ilg‘ash mumkin. Masalan, 1875 20-oktyabr 7-sonida qavs ichida “General Chernayev 2000 (ikki ming! Ta’qid bizniki – M.Sh.) askar bilan Toshkentni olib, butun Turkistonni bo‘ysundirgan o‘sha general”, deb qayd qilinganida ichki bir dard, qardoshlarcha taassuf yashiringanini sezish qiyin emas.

Quyida gazeta sahifalarida yoritilgan Turkiston hayotiga oid bir necha lavhani keltiramiz: “General Kaufman Qo‘qon shahrini egallagandan keyin atrofdagi aholiga kim Rossiyaga tobelikni tan olsa, unga omonlik beriladi, Rus davlati musulmon tobelarining o‘z shaharlarida yashashlariga monelik qilmaydi. Xudoyorxon Peterburgga olib ketiladi, Qo‘qonda xonlik qilmaydi, deb e’lon qildi.

“Ekinchi” gazetasi Turkiston hayotiga oid lavhalarni berishda, asosan, “Turkiston viloyati gazeti” materiallariga tayangan. Masalan, “Samarqanddan “Turkiston” (“Turkiston viloyatining gazeti”) yozadiki, Qo‘qon bilan Rossiya jang qilayotgan vaqtda Buxoro xoni (amiri) maslahat bilan qo‘qonliklar tarafida turib, ularga yordam berishga harakat qilgan. Shuning uchun Rossiya tarafidan Buxoro sarhadlariga bir necha yuz kazak qorovullar qo‘yilgan”.

“Turkistondan sentyabrning 22-sanasidan yozarlarki, Qo‘qon sarkadasi o‘daboshi Abdurrahmon o‘z askari mag‘lub bo‘lgandan so‘ng qaytadan 10000 askar to‘plab ruslar qarshi jangga otlanadi. Ammo rus askarlarini ko‘rganda uning qo‘shini qochib, o‘zi besh kishi bilan Buxoro shahriga keldi”.

1875-yil 18-noyabr sonida “25-sentyabrdan general Kaufmanning bu mazmundagi buyrug‘i chop qilindi: “Qo‘qon xonligiga qarashli bo‘lgan Sirdaryo, ya’ni Sayhunning chap tomoni Rossiyaga tobe sanaladi...” Shuningdek, 1876-yil 15-fevral 3-sonida Toshkent shahrining yangi loyihasi ishlanayotgani, unda temir yo‘l keltirish rejasi ham borligi haqida yoziladi.

“Ekinchi”ning Turkiston hayotiga oid xabarlari faqat siyosiy axborotdan iborat bo‘lmay, oz bo‘lsa ham madaniy-ma’rifiy adabiy sohaga oid ma’lumotlar ham topiladi. Jumladan, “Rossiya o‘tgan yili zabt etgan Qo‘qon shahridan endilikda Rossiya tomonidan taxtdan ag‘darilgan so‘nggi xoni Xudoyorxon bir jome’ masjid bunyod qilib, uning darvoza tepasiga ushbu ruboiy yozilgandir:

Xudovando, ba gardani baloro,

Zi ofatho nigoh doriy tu maro.

Ba haqqi har du geuyi Muhammad

Zabun kardan zabardastoni maro.

Tarozandayi naqshi Behzod soz,

Chu orost ba lavhi kashshi Taroz.

Maro guft: “Ta’rixi naqsham bigo‘”,

“Ba farmoni (1289) Sayyid Xudoyor” bigo‘.

Gazetaning yana bir sonida o‘qiymiz: “Turkiston” gazetida bir odam quyidagi topishmoqni yozib yuborgan edi. Unga Samarqanddan javobi keldi:

(Topishmoq):

Shahrisabzdan chiqibdir bir qiz,

Qirq qiz tuqqan, hali ham qiz.

Ustidan erkak chibin o‘tgani yo‘q,

Yorsiz bir kecha ham yotgani yo‘q.

(Javob):

Shahrisabzdan kelibdir bir qiz,

O‘zi mulloyi dono qiz.

Maktab tutardi doim niz,

Hargiz buning yolg‘oni yo‘q.

Bu kabi faktlar “Ekinchi”ning nisbatan taraqqiyparvar nashr bo‘lganidan darak beradi.

Qayd etilganlardan quyidagicha umumiy xulosalar bayon qilish mumkin:

Ilg‘or Sharq mamlakatlarida ro‘y bergan taraqqiyparvarlik va islohotchilik harakatlarining jadid matbuotida aks etishida Misrda fors tilida chiqqan “Habl ul-matin”, “Chehrakusho”, “Parvarish”, Afg‘onistondagi “Siroj ul-axbor”, turkiy tillardagi “Irshod”, “Mullo Nasriddin”, “Tarjumon”, “Vaqt”, “Yildiz”, “Ekinchi”, “Tarjumon”ga ilova sifatida nashr qilingan bo‘lishiga qaramay alohida milliy nashr sanash mumkin bo‘lgan “Olami sibyon” bolalar gazetasi, shuningdek, “Vaqt” ilovasi bo‘lgan “Sho‘ro” jurnali, qisqa muddat fors tilida nashr qilingan “Turkiston” gazetalari o‘rni katta bo‘ldi;

bu gazeta va jurnallar kuchli syenzura nazorati ostida bo‘lishiga qaramay, davrning turli jabhalariga oid masalalar yuzasidan bahs yuritib, ommaning savodxonligi, xalq mustaqilligi, fikriy erkinlik, shaxs va millat baxti kabi umuminsoniy qadriyatlar yo‘lida xizmat qildi;

turli davriy nashrlarda ko‘zga tashlanadigan bayon va mavzu umumiyligi jadidlarning mushtarak maqsad va g‘oyalari aksi o‘laroq yuzaga kelgan deyishga to‘la asos bo‘lsa ham, ularning o‘z navbatida bir-biriga g‘oya va matbuot mahorati borasida ta’siri bo‘lganligi rad qilib bo‘lmaydi.

jadid matbuotining yuzaga kelishi, mavzu doirasi, ularning bir-biriga ta’siri kabi istalgan masalani yoritishda, bizningcha, eng birlamchi manba jadid matbuotining o‘zidir. Undagi materiallar, hatto hozirga qadar tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan ma’lumotlarni taqdim qilib, mavzuni bir qadar asosli va ma’lumotlarga boy tarzda yoritishda ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mətbuat tariximizin “Əkinçi” dövrü // Azərbaycan Mətbuat Tarixi (1875-1920). – Bakı: “Elm və təhsil”, 2009. – S. 14.
2. “Əkinçi” Tam mətni. – Bakı: Avraasıya Press, 2005. 469 səhifa.
3. Шўро. 1908. №1. – С. 24.
4. “Əkinçi” Tam mətni. – Bakı: Avraasıya Press, 2005. 469 səhifa.
5. Шўро. 1908. №1. – С. 24.

6. “Əkinçi”, №14. 1876, 25 июль.
7. “Əkinçi” Tam mətni. – Bakı: Avraasıya Press, 2005. – S. – 64.
8. “Əkinçi” Tam mətni. – Bakı: Avraasıya Press, 2005. – S. – 64.
9. “Əkinçi” Tam mətni. – Bakı: Avraasıya Press, 2005. – S. 246 –247.
10. “Əkinçi” Tam mətni. – Bakı: Avraasıya Press, 2005. – S. 265.